

XOR SAN'ATINING NAZARIY ASOSLARI VA TARIXIY RIVOJLANISHI. MUSIQA MAKTABLARI UCHUN AMALIY AHAMIYATI

Shohrux Yigitaliyev

Farg'ona ixtisoslashtirilgan san'at maktabi

"Xor dirijyorligi" bo'limi o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada xor san'atining nazariy asoslari va tarixiy rivojlanish bosqichlari qadimgi sivilizatsiyalardan boshlab antik davr, o'rta asrlar, barokko va romantizm davrigacha ilmiy jihatdan yoritilgan. Xor san'atining diniy, ijtimoiy, estetik va tarbiyaviy funksiyalari tahlil qilinib, har bir davrning o'ziga xos musiqiy-uslubiy xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, tarixiy tajribaning zamonaviy musiqa maktablari xor pedagogikasidagi amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Maqola xor rahbarlari va musiqa maktablari o'qituvchilari uchun metodik manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Xor san'ati, xor pedagogikasi, polifoniya, gregorian xor, barokko musiqasi, romantizm estetikasi, ansambl uyg'unligi, intonatsiya, vokal tarbiya.

Xor san'ati insoniyat madaniyati tarixida eng qadimiy san'at shakllaridan biri sifatida yuzaga kelgan. Ilmiy manbalarga ko'ra, xorning dastlabki shakllari insonlarning birgalikda ovoz chiqarish faoliyatlari orqali paydo bo'lgan. Arxeologik topilmalar va antropologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insonlar o'zlarining diniy e'tiqodlari doirasida to'planib, ma'naviy marosimlar, tantanalar va bayramlarda jamoaviy ovoz chiqarganlar. Shu tariqa, xor san'ati insonning ijtimoiy va estetik ehtiyojlari bilan chambarchas bog'langan. Qadimgi Mesopotamiya, Misr va Hindiston madaniyatlarida xorlar diniy marosimlarning ajralmas qismi bo'lgan. Bu davr xor san'ati ko'proq monofonik (bir ovozli) tarzda bo'lsa-da, uning diniy va ijtimoiy ahamiyati ulkan edi. Xor faoliyati jamiyatda ma'naviy uyg'unlikni mustahkamlashda xizmat qilgan.

Antik davr va yunon xor san'ati

Musiqa maktablari uchun tarixiy-nazariy manba sifatida musiqa san'ati insoniyat madaniyatining ilk bosqichlaridan boshlab jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ayniqsa, xor san'ati qadimdan jamoaviy musiqiy ifodaning asosiy shakllaridan biri bo'lib, u insonlar o'rtasida madaniy, ruhiy, estetik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo'lgan. Xususan, antik davr yunon xor san'ati xor ijrochiligining shakllanishida tamal toshlardan biri hisoblanadi. Ushbu san'at turi qadimgi Yunoniston jamiyatida musiqaning diniy, marosimiy,

axloqiy, tarbiyaviy va badiiy jihatlarini birlashtirib, bugungi xor pedagogikasiga asos bo'lgan fundamental mezonlarni yaratgan.

Qadimgi yunonlar uchun musiqa — bu nafaqat tovushlar tizimi, musiqa san'atining barcha shakllari, xususan xor ijrosi, ta'lim-tarbiya, falsafa, teatr va davlat hayotida keng qo'llanilgan. Yunon jamiyatida xor san'ati ko'plab funksiyalarni bajargan:

Diniy marosimlarda: Apollon va Dionisga bag'ishlangan bayramlarda;

Teatr sahnasida: tragediya va komediya asarlarida izohlovchi va talqinlovchi kuch sifatida;

Tarbiya vositasi sifatida: bolalar va yoshlar axloqiy-estetik dunyoqarashini shakllantirishda;

Jamiyatga xizmat qiluvchi institut sifatida: jamoaviylik va fuqarolik tarbiyasini kuchaytirishda.

Dionis festivallari va xor ijrosining teatr bilan uyg'unlashuvi

Antik davrda xor san'ati, ayniqsa, Dionis festivallarida alohida ahamiyat kasb etgan. Aynan shu diniy bayramlardan yunon teatri va xor dramatik san'ati kelib chiqqan. Tragediyalar mualliflari Aysxil, Sofokl va Yevripid xorni sahnadagi asosiy obraz sifatida ishlatganlar. Xor voqealarni izohlab beruvchi, muallif g'oyasini ifodalovchi, tomoshabinga axloqiy-falsafiy xulosalarni yetkazuvchi kuch sifatida namoyon bo'lgan. Xor o'rtacha 12–15 nafar erkak ijrochidan tashkil topgan bo'lib, ularning harakatlari va ifodalari sahna harakatlari bilan uyg'unlashgan. Xorning boshida korifey (xor yetakchisi) turib, u xor bilan yakka suhbatlari orqali syujetning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Aristotelning "Poetika" asarida ta'kidlanadi:

“Xor — bu ruhiy tarbiyaning ovozli ifodasi. U tomoshabinga haqiqatni his qilgan holda tushuntirish uchun xizmat qiladi.”

Antik Yunon musiqiy tafakkurida xor san'ati modallik tizimi asosida rivojlangan. Doriy, frigiya, lydiy kabi modlar xor kuylarining ohangdorlik asoslarini tashkil etgan. Notatsiya tizimi to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ijro asosan eslab qolish, ritmik-intonatsion namunalar, og'zaki uzatish orqali amalga oshirilgan. Yunon xor asarlari ko'pincha she'riy shaklda bo'lgan va ular:

Strofa-antistrofa shaklida almashib turadigan bo'limlarga ega;

Qo'shiq va raqs uyg'unligida ifodalanadi;

Mifologik, tarixiy, falsafiy mazmunni o'z ichiga oladi.

Bu tuzilma bugungi xor kompozitsiyalarining strukturasiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Qadimgi yunon xor jamoalari nafaqat musiqiy, balki axloqiy va jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi sifatida xizmat qilgan. Ayniqsa, Sparta va Afinada xor maktablari yosh avlodni harbiy, jismoniy va estetik tarbiyalashda asosiy vosita sifatida qaralgan. Musiqa orqali o'rgatilgan asosiy fazilatlar:

Tartib-intizom, fe'l-atvorning muvozanatliligi;

Guruhdagi har bir shaxsning umumiy javobgarlikni his qilishi;

Ritm, tovush, nafas va harakatni uyg'unlashtirish orqali ichki uyg'unlikka erishish.

Bu jihatlar musiqa maktablarida xor tarbiyasining bugungi vazifalari bilan bevosita bog'liqdir. Ayollar xor jamoalari ba'zida qadimiy diniy bayramlarda ayollar xor jamoalari ham faol ishtirok etgan. Ular odatda Afina, Demetra, Artemida kabi ilohalarga bag'ishlangan qo'shiqlarni ijro etgan. Ayollar xorlarining ijrosi aylanma shakl, yengil harakatlar, lirik ifoda bilan ajralib turgan. Bu tarixiy fakt, bugungi xor jamoalarida ayollar vokal imkoniyatlari va jamoaviy ijro madaniyatini rivojlantirish zarurligini ham isbotlaydi. Antik davr, ayniqsa qadimgi Yunoniston xor san'ati, jahon madaniyatida xor pedagogikasining ildiz manbasi sifatida baholanishi lozim. Bu davr xorlari faqat musiqiy ijro vositasi emas, balki inson qalbi, axloqi, fe'l-atvori va estetik idrokini tarbiyalovchi ijtimoiy institut sifatida faoliyat ko'rsatgan.

Bugungi musiqa maktablarida xor jamoalarini shakllantirishda ushbu tarixiy tajribadan foydalanish — o'quvchilarda chuqur musiqiy tafakkur, jamoaviylik tuyg'usi va milliy-estetik qadriyatlar asosida tarbiya berishning muhim omili bo'la oladi.

O'rta asrlar va gregorian xorlari

O'rta asrlar (taxminan milodiy V–XIV asrlar) insoniyat musiqiy tafakkurining chuqurlashgan, ayniqsa Yevropada musiqiy san'atda diniy ruh ustunlik qilgan davr hisoblanadi. Aynan shu bosqichda xor san'ati Yevropaning madaniy hayotida markaziy o'rin egallab, Rim katolik cherkovi faoliyati orqali musiqiy-estetik qadriyatlar shakllangan. Bu davrning eng yorqin musiqiy ifodasi — gregorian xor san'ati bo'lib, u zamonaviy xor ijrochiligiga ta'sir ko'rsatgan klassik model sifatida musiqa pedagogikasida alohida o'rganiladi.

Gregorian xorlari (lotincha "Cantus Gregorianus") — bu G'arbiy Yevropaning ilk musiqiy namunalaridan biri bo'lib, Rim papasi Gregor I (540–604 yillar) nomi bilan bog'lanadi. U cherkov liturgiyasini musiqiy jihatdan markazlashtirish va bir xil shaklga keltirish maqsadida, mavjud diniy qo'shiqlarni to'plab, ularga yagona uslub yaratgan. Gregorian xorlari quyidagi jihatlar bilan ajralib turadi:

Monofonik (bir ovoqli) — faqat bitta melodik chiziq mavjud;

A cappella uslubida — ya'ni cholg'usiz, faqat ovozda ijro etiladi;

Liturgik matnlar asosida — ibodat, dualar, diniy marosimlar matni asosida bastalangan;

Erkin ritmli — barqaror metrik tuzilmasiz, matn ohangiga mos tarzda harakatlanadi.

Bu xorlar diniy ongini tarbiyalash, ruhiy poklanish, fikr va qalbni uyg'unlashtirishga xizmat qilgan. Gregorian xorlarini o'rganish orqali biz Yevropa notatsiya tizimining boshlanishiga guvoh bo'lamiz. Ilk xatlar ustiga belgilar ("neumal notatsiya") yozilgan. Keyinchalik bu belgilar to'rtta chiziqli sistemasiga o'tkazilib,

Guido d'Arezzo (XI asr) tomonidan mukammallashtirilgan. Bugungi xor notatsiyasi aynan shu tizimdan rivojlangan. Guido d'Arezzo tomonidan yaratilgan "solmization" tizimi (do-re-mi...) xor pedagogikasida inqilobiy o'zgarish bo'lib, bu metod hozirgi musiqa maktablarida ham keng qo'llaniladi.

Gregorian xorlari faqat ibodat musiqasi emas, balki ruhiy tarbiya, fe'l-atvorni shakllantirish, estetik idrok va tinglash madaniyatini rivojlantirish vositasi sifatida qaralgan. O'rta asr monastirlarida bolalar va yoshlar aynan gregorian xorlari orqali musiqa bilimlarini o'zlashtirishgan:

Diqqatni jamlash, ichki intizomni mustahkamlash;

Ovoz nazoratini rivojlantirish;

Toza intonatsiya va tabiat bilan uyg'unlikni his qilish.

Shuningdek, bu xorlar orqali o'quvchilar jamoa madaniyatini, bir ovozda uyg'un harakat qilishni, bir-birini tinglashni o'rganishgan. Bugungi musiqa maktablarida gregorian xorlari tatbiqi:

Ansambl uyg'unligini rivojlantirish uchun mukammal mashq vositasi;

Sof intonatsiya, vokal barqarorlik va diapazon bo'yicha ovoz yuritish texnikasini o'rgatishda samarali;

Jamoaviy ijro madaniyatini shakllantirishda klassik asos bo'la oladi. Bu xorlar ko'pincha boshlang'ich xor darslarida intonatsion aniqlik va vokal muvozanatni tarbiyalovchi mashg'ulotlar sifatida qo'llanilishi mumkin. Misol:

Musiqa maktabidagi kichik yoshdagi xor jamoasi uchun quyidagi metodik yondashuv taklif etiladi:

Gregorian xor namunalari orqali har bir so'zning ohangli talaffuzini to'g'rilash;

"Vokal o'yini" shaklida bir ovozda nafasni muvozanatlash;

Bosh ovoz bilan butun xorning birligiga e'tibor qaratish.

Bu metodik yondashuvlar bugungi xor rahbarlari uchun ahamiyatlidir. Gregorian xorlari tarixiy jihatdan Yevropada polifonik musiqaning — ya'ni ko'p ovozli musiqaning shakllanishiga zamin yaratdi. Dastlabki ikki ovozli shakllar — organum deb atalgan. Bu tizimda gregorian melodiya asosiy (tenor) partiya bo'lib qolgan, ustidan qo'shimcha ovozlari (diskant, alt) kiritilgan. Bu esa xor asarlarining murakkabligiga olib kelgan. Bu jarayon, xor rahbarlari uchun muhim: xor tuzilmasi, vokal tafovutlar, shakl va rivoj haqida metodik bilimlarni shakllantiradi.

O'rta asrlar va Gregorian xor san'ati — xor pedagogikasining tarixiy poydevorini tashkil etgan. Bu xorlar orqali inson ruhiy olami, ichki fe'l-atvori, musiqiy tafakkuri va jamoaviylik tuyg'usi shakllangan. Bugungi musiqa maktablarida xor darslarini o'rgatishda gregorian xorlari:

Intonatsion aniqlikni rivojlantirish;

Jamoa uyg'unligini shakllantirish;

Tovushni to'g'ri boshqarish va vokal sifatni oshirish vositasi sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun xor rahbarlari o'quv repertuarini tuzishda klassik monofoniya namunalarini o'rganish va zamonaviy usullar bilan uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning musiqiy tarbiyasini yanada chuqurlashtirish mumkin.

Barokko, klassika va romantik davrda xor san'ati

Musika san'atining tarixiy taraqqiyoti davomida xor ijrochiligi o'ziga xos bosqichlardan o'tgan. Ayniqsa, Barokko (1600–1750) va Romantizm (taxminan 1800–1910) davrlari xor san'atining estetik, texnik va ijro jihatdan chuqur takomillashgan davridir. Bu ikki davr xor jamoalari faoliyatida polifonik boylik, dinamik ifoda, dramatik kuch, g'oya yuksakligi kabi sifatlarni shakllantirdi. Musika maktablari xor pedagogikasini samarali tashkil etishda ushbu davrlar xususiyatlarini bilish muhim.

Barokko davr musiqasi — hissiy kuch, tafakkur, tafsilot va ziddiyatlarga boy badiiy ifoda vositasi bo'lib, xor san'ati bu davrda ibodat, saroy musiqasi va xalqiy an'analarni uyg'unlashtiruvchi yuksak badiiy shaklga aylandi. Barokko davrida xor san'ati quyidagi vazifalarni bajargan:

Cherkovlarda xorlar diniy musika markaziga aylangan;

Operalarda, oratoriyalarda va kantatalarda xor — syujet harakatining ishtirokchisiga aylangan;

Ovoz qatlamlari orasidagi murakkab uyg'unlik shakllangan.

Barokko xor musiqasining asosiy belgilaridan: Ko'p ovozli (polifonik) tuzilma har bir partiya mustaqil ohangga ega;

Kontrapunkt san'atining yuksak darajada rivojlanishi;

Basso continuo (asosiy bas) tizimining qo'llanilishi;

Diniy va dunyoviy shakllarning uyg'unligi;

Emotsional kuch, barokko drammatizmi, kontrastlar (baland–past, kuchli–yumshoq).

I.S. Bax asarlari orqali xor san'atining dramatik va diniy kuchini namoyish etgan. G.F.Gendel – oratoriya janrida xorni g'oyaviy kuchli obrazga aylantirgan. Barokko davrida xor jamoasi hissi bilan ijro qiluvchi kuch sifatida ko'rilgan, bu esa hozirgi musika maktabi xor rahbarlari uchun o'quvchilarning mazmunni tushunib, ichki his bilan kuylashi tamoyiliga asos bo'la oladi.

Musika maktablari uchun barokko xor musiqasining ahamiyati

Barokko xor asarlarini musika maktablari o'quvchilari uchun moslab tanlash:

Toza intonatsiya va ansambl uyg'unligini rivojlantiradi;

O'quvchilarni polifonik tafakkurga o'rgatadi;

Dinamik nazorat, frazalash va vokal muvozanatni oshiradi;

Tarixiy-estetik dunyoqarashni kengaytiradi.

Romantizm davrida xor san'ati

Romantizm estetikasi va xorning badiiy funksiyasi

Romantizm davrida musiqa — his-tuyg‘ular, ruhiy to‘lqinlar, shaxsiy kechinmalar ifodasiga aylandi. Xor asarlari ham inson qalbining to‘lqinsimon holatlarini, sevgini, vatanparvarlikni, dardni, hayratni obrazli ifodalashga xizmat qilgan. Bu davr xor musiqasi avvalgi davrlarga qaraganda lirik, emotsional bo‘ldi. Modulyatsiyalar, xromatizm, murakkab ohanglar qo‘llanildi. Xor musiqasi shaxsiy kechinmalarni ijtimoiy obraz bilan uyg‘unlashtirdi. Dunyoviy xorlar – tabiat, muhabbat, tarixiy obrazlar asosida, vatanparvarlik xorlar – xalq ruhiyati va ozodlik g‘oyasini aks ettiradi. Miniatyura xorlar esa qisqa, lirik mazmunga ega.

Musiqa maktablari uchun romantik xor musiqasining amaliy ahamiyati

Romantik xor asarlarini o‘quvchilar bilan o‘rganish:

Ijodiy ifodani, emotsional talqinni rivojlantiradi;

Matnga chuqur kirishish, hissiyot orqali talqin qilish ko‘nikmasini beradi;

Vokal imkoniyatlarni kengaytiradi (diapazon, ohangiy keskinlik, kuchli-past dinamika). Barokko va Romantizm davrlari xor musiqasi xor pedagogikasining metodik asosini boyitgan tarixiy manba hisoblanadi. Bu asarlar orqali musiqa maktablarida:

Polifonik fikrlash (Barokko);

Ijodiy, emotsional ifoda (Romantizm);

Tarixiy-estetik dunyoqarash;

Yuqori darajadagi vokal va ansambl madaniyati shakllantiriladi.

O‘quvchilar Barokko musiqasi orqali tartib, kontrapunkt va strukturani, Romantizm musiqasi orqali esa ruhiy ifoda, ohangli til va matnning his-tuyg‘uli talqinini o‘zlashtiradilar.

Adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Ivanova M. Bolalar musiqasi va xor san’ati.
- 2.Mukhtarov R. Musiqiy ta’limida ijodiy yondoshuvlar.
- 3.Akmalov B. Bolalar xorida ishlashning nazariy asoslari.